



Jahongir TURSUNOV,

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: jakhongirtursunov@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) P. A. Qurbonov taqrizi asosida

AJRATILGAN GAP BO'LAKLARINI YUZAGA KELTIRUVCHI ASOSIY OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Nemis tilshunos olimlari tomonidan gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan bildirib kelinayotgan munosabatlarni bir-biriga qiyos qilib o'rganish, ularning bu sohadagi fikr-mulohazalari bir xil emasligi, germanshunos olimlarning ajratish hodisasiga nisbatan qarashlari bundan tashqari, fikr-mulohazalarining xilma-xil bo'lishidan qat'iy nazar, ular yagona bir narsaga, ya'ni tanlangan mavzuning barcha xususiyatlarini izohlab berishga yo'naltirilganligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Germanshunos, aniqlovchili, to'ldiruvchi, ma'no xususiyatlari, ifodalanish usullari, ifodalanish usullari, ikkinchi darajali bo'laklarning gap tarkibida tutgan o'rni, komponent funksiyasida kelishi.

THE MAIN FACTORS THAT CREATE MAIN PARTS OF THE CLAUSES

Annotation

In this article, a comparative study of the attitudes expressed by Germanic scholars regarding the factors affecting the separation of parts of speech, the fact that their opinions in this field are not the same, the views of Germanic scholars on the phenomenon of separation, in addition to the fact that their opinions are different regardless of their variety, it is analyzed that they are focused on one thing, that is, to explain all the features of the selected topic

Key words: Germanic, determinative, complement, features of meaning, methods of expression, the role of secondary clauses in the sentence, their occurrence in the component function.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, ОБРАЗУЮЩИЕ ОТДЕЛЬНЫЕ ЧАСТИ ПРЕДЛОЖЕНИЯ.

Аннотация

В данной статье проводится сравнительное исследование взглядов германистов на факторы, влияющие на разделение частей речи, на то, что их мнения в этой области не совпадают, взгляды германистов на явление разделения, по мимо того, что их мнения различны независимо от их разновидности, анализируется, что они ориентированы на одно, то есть на объяснение всех особенностей выбранной темы.

Ключевые слова: Германское, определительное, дополнение, особенности значения, способы выражения, роль второстепенных предложений в предложении, их появление в функции компонента.

Kirish. Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir necha yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Yurtimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti soati keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020- yildagi PF-6097-sonli Farmonida "Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yg'an ekanmiz, bundan buyon maktab va Oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining mezoniga aylanishi lozim", - dedi Sh. Mirziyoyev [1].

Ishning maqsadi, Germanshunos olimlar tomonidan gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan bildirib kelinayotgan munosabatlarni bir-biriga qiyos qilib o'rganish, ularning bu sohadagi fikr-mulohazalari bir xil emasligini ilmiy jihatdan asoslab berish.

Tadqiqotning vazifasi quyidagilardan iborat: ikkinchi darajali bo'laklarning ma'no xususiyatlari, ikkinchi darajali bo'laklarning ifodalanish usullari, aniqlovchilarning ifodalanish usullari, ikkinchi darajali bo'laklarning gap tarkibida tutgan o'rni, bir nechta ikkinchi darajali bo'laklarning parallel mavjudligi va ularning bir birlariga nisbatan izohlanayotgan komponent funksiyasida kelishi, ikkinchi darajali bo'laklarning hajmlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Germanshunos olimlarning ajratish hodisasini o'rganishga bag'ishlab yozgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishish davomida, ular tomonidan ajratish hodisasining yangi-yangi xususiyatlari izohlanayotganligiga guvoh bo'lamiz. Ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan bunday xususiyatlar ichida, birinchi navbatda, ularni yuzaga keltirishda bevosita ta'sir etuvchi omillar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Shu sababli ham biz ushbu ilmiy maqola doirasida ayrim germanshunos olimlarning shu soha bo'yicha aytgan fikr-mulohazalarini keltirishni va ularga nisbatan ma'lum darajada tegishli munosabat bildirishni asosiy maqsad qilib olamiz. Masalan, K.Y.Petrovskaya ingliz tili ustida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida holli aniqlovchili va to'ldiruvchili ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishi jarayonida, gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi tartibda izohlaydi:

- 1) ikkinchi darajali bo'laklarning ma'no xususiyatlari;
- 2) ikkinchi darajali bo'laklarning ifodalanish usullari;
- 3) aniqlovchilarning ifodalanish usullari;
- 4) ikkinchi darajali bo'laklarning gap tarkibida tutgan o'rni;
- 5) bir nechta ikkinchi darajali bo'laklarning parallel mavjudligi va ularning bir birlariga nisbatan izohlanayotgan komponent funksiyasida kelishi;
- 6) ikkinchi darajali bo'laklarning hajmi;
- 7) muallifning shu gap bo'lagining ma'nosini bo'rttirib, boshqalardan ajratib ko'rsatish niyati.

Ikkinchi darajali gap bo'laklarning ma'no xususiyatlari; Ingliz tilida gap turlarining to'rt turi mavjud: darak, undov, buyruq va so'roq. Har bir gap turi har xil maqsadga xizmat qiladi. Har xil turdagi gaplarning tushinish va ulardan qanday foydalanish yozish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bularga undovlar (ingliz tilida masalan, "WOW", and "What is the hell"), aforistik iboralar (Like fathr, like son), savollarga javoblar (Not wright now), o'zini o'zi aniqlash (Mary here), undovlar ("Go!") va h.k. Asosiy semantik xususiyatlar ma'nolilik yoki ma'nosizlikni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ikki qismli gaplarni ifodalashda esa tobe bo'laklarning eng keng tarqalgan turlari to'ldirivchi, hol va qo'shimchalar hisoblanadi. Ularning har biri gapda o'ziga xos vazifani bajaradi va shakllanish va qo'llanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Gapning bu qismlari ega, kesim, hol va aniqlovchidir. Bular, berilgan jumalarning bu qismlari sizning yozish uslubingizga rang-baranglik qo'shadi va gaplarning har bir qismni joylashtirganingizga qarab, ular gap hamda so'zlaringizning ma'nosini o'zgartirishga amaliy yordam beradi. Bundan tashqari, gap tarkibidagi kichik ergash gaplarning o'rni tobe ergash gap bo'lib o'z-o'zidan to'liq gap sifatidagi gap emas, u shunchaki gapning bosh qismini to'ldiradi va shu yo'l bilan butun semantik gapni tugallaydi. Tobe ergash gapning ma'nosi bosh gapga doimo bog'liq bo'lganligi uchun u ergash gap ham deyiladi. Gaplarni ikki guruhga bo'lish mumkin: tobe va mustaqil. Tobe ergash gapda mavzu va fe'l bor, lekin o'z-o'zidan to'liq gap sifatida ishlatilmaydi. Mustaqil gap predmet va fe'lni o'z ichiga oladi va to'liq fikrni ifodalaydi.

Lekin, bizningcha gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, ajratilgan bo'lakli gaplar deyiladi. Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmun jihatdan murakkablashadi va gapning asosiy qismi ifodalagan ma'lumotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha ma'lumot yoki axborot qo'shiladi. Gap bo'laklarining ajratilishida ta'sir etuvchi, K.Y. Petrovskaya tomonidan taklif etilgan bunday omillar, G.V. Kolshanskiyning "Грамматическая функция обособления членов предложения" mavzusida 1962 yilda chop etilgan ilmiy maqolasida ma'lum darajada morfologik umumiy xarakterga ega bo'ladi. Muallif rus, nemis va boshqa bir qator tillarda uchraydigan ajratilgan bo'laklarning grammatik funksiyasini o'rganish jarayonida, ularni yuzaga keltiruvchi omillar to'g'risida quyidagicha xulosaga keladi:

- 1) aniqlovchining morfologik xususiyati;
- 2) aniqlanishning morfologik xususiyati;
- 3) aniqlanishli guruhlarining tarkibiy qismi va ularning kengayish usullari;
- 4) aniqlanishli guruhlarining tutgan o'rni;
- 5) aniqlovchilarga nisbatan yonma-yon turuvchi boshqa aniqlovchilar;
- 6) boshqa bir qator grammatik omillar.

Germanshunos olimlar tomonidan gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan bildirib kelinayotgan bunday munosabatlarni bir-biriga qiyos qilib o'rganar ekanmiz, ularning bu sohada fikr-mulohazalari bir xil emasligiga guvoh bo'lamiz. Lekin shu narsaga alohida urg'u berish lozimki, germanshunos olimlarning ajratish hodisasiga nisbatan qarashlari, fikr-mulohazalari xilma-xil bo'lishidan qat'iy nazar, ular yagona bir narsaga, ya'ni tanlangan mavzuning barcha xususiyatlarini izohlab berishga yo'naltirilgan. K.Y. Petrovskaya va G.V. Kolshanskiylarning ushbu soha bo'yicha aytgan ba'zi bir fikr-mulohazalari ham yuqorida keltirilgan tezisni yana bir bor tasdiqlamoqda. Ular tomonidan ajratilgan bo'laklarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash buyicha qo'llanilgan metodlari aynan bir-biriga o'xshab ketadi. Ularning bir biriga yaqinligini quyidagicha

izohlash mumkin. Masalan: K.Y. Petrovskayaning № 2, 3-raqamlar bilan qayd etilgan omillari, G.V. Kolshanskiyning № 1, 2-raqamlarda qayd etgan omillariga; shuningdek, № 4-raqam bilan berilgan omil, № 4-raqamda berilgan omilga, № 5-raqam bilan berilgan omil xuddi shunday № 5-raqamdagi omilga, №6-raqam bilan berilgan omil esa, № 3-raqam bilan berilgan omillariga ma'lum darajada mos kelishi mumkin. Biroq mualliflar tomonidan bu yerda keltirilgan omillar o'rtasida, K.Y. Petrovskayaning № 7-raqam bilan berilgan omili kitobxonda katta qiziqish uyg'otadi, chunki "muallif" tushunchasi bizningcha u yoki bu yozuvchining individual uslubini eslatadi[2].

K.Y. Petrovskaya va G.V. Kolshanskiylarning ilmiy-tadqiqot ishlarida keltirilgan bunday omillar boshqa bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarida yanada konkretlashtiriladi, to'ldiriladi va yangi-yangi tomonlar bilan boyitiladi [3].

Gap bo'laklarining ajratilishida ishtirok etuvchi va muallif tomonidan taklif etilgan ushbu omillar ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan barcha funksiyalarining, ya'ni, sintaktik, semantik, stilistik va kommunikativ funksiyalarining shakllanishida ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Gap bo'laklarining ajratilishida yozuvchining individual uslubi qolgan boshqa omillar ichida yagona, eng muhim, yetakchi omil ekanligini alohida ta'kidlash maqsadida B.T. Tursunovning quyidagi tezisini bu yerda keltirishni o'rinli deb bilamiz. Muallif ajratish hodisasini ilova hodisasiga qiyos qilib o'rganish natijasida shunday yozadi: "Ajratish va ilova hodisalari - bu o'z tabiatlariga ko'ra stilistik hodisalardir, shu sababli ham ularning badiiy matn doirasida yoyilish darajasi faqatgina u yoki bu yozuvchining individual uslubi bilan belgilanadi" [3].

Hqiqatan ham u yoki bu yozuvchining individual uslubi nafaqat ajratilgan bo'laklarning, hatto shunga yaqin bo'lgan sintaktik hodisalarning (biz bu yerda ilova, ellipsis hodisalarini, shuningdek so'z tartibini nazarda tutamiz) ham matn doirasida yoyilish darajasini, qo'llanilish darajasini belgilovchi birdan-bir omildir.

Germanshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida gap bo'laklarining ajratilishida ta'sir etuvchi omillar to'g'risida keltirilgan fikr-mulohazalarini ma'lum darajada o'rganish, ma'lum tartibga keltirish va ularga nisbatan tegishli munosabatlarni bildirish quyidagi xulosalarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin:

1) ajratilgan bo'laklar muhim uslub vositalaridan biridir, chunki ularning qo'llanilishi, yoyilish darajasi, hatto xilma-xil struktural shakllanishi, bularning barchasi u yoki bu yozuvchining individual uslubining mahsulidir. Shu sababli ham ajratilgan bo'laklar masalasi grammatika fani bilangina emas, balki stilistika, semantika, shuningdek fonetika masalalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi;

2) gap bo'laklarining ajratilishida bir qator omillar ta'sir qilishi mumkin: gap bo'laklarining tartibini o'zgarishi; struktural tuzilishining kengayishi; inversiya holati; tinish belgilarining stilistik funksiyalari; ajratilgan bo'laklarning izohlanayotgan bo'laklarga nisbatan pre-, inter-, postpozitsiya holatlarda kelishi; tobeklik darajasi; mono- va polifunksionallik tabiati; mavjud kontekstual muhit; sintaktik aloqaning bo'shligi; qo'shimcha ma'no xususiyatlari; muallifning ajratilgan bo'lakni boshqa oddiy gap bo'laklaridan alohida ajratib ko'rsatish niyati va h.k.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili tadqiqi etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurlariga ega ekanini namoyon etuvchi qism hisoblanadi hamda shu asosida ma'lum bir yangilik yaratishni anglatadi. Adabiyotning tanqidiy tahlilidagi urinishlar mazkur mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytiradi va tadqiqot savollarini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. O'z mazmuniga ko'ra har qanday tadqiqot

ayni shu sohaga yaratilgan avvalgi bilimlar negizida quriladi. Tilshunoslik bo'yicha tahlil asosan sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va boshqa turdagi ma'lumot manbalari asosida amalga oshadi (mavzuga oid maqolalarni kalit so'zlar yordamida www.scholar.com) qidiruv tizimidan topishi mumkin.

Tahlil metododlogiyasi. Tadqiqot jarayonida leksik-semantik, komponent, kontekstual, kognitiv-diskursiv, statistik kabi tahlil metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning tahlil qismi tadqiqot metodologiyasidan avval belgilab olingan. Tahlil usullari orqali to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bunda faqat tahlil natijalari bayon etiladi.

Xulosa va takliflar. Ikki qismli gaplarni ifodalashda esa tobe bo'laklarning eng keng tarqalgan turlari to'ldirivchi, hol va qo'shimchalar hisoblanadi. Ularning har biri gapda o'ziga xos vazifani bajaradi va shakllanish va qo'llanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Gapning bu qismlari ega, kesim, hol va aniqlovchidir. Bular, berilgan jummalarning bu qismlari sizning yozish uslubingizga rang-baranglik qo'shadi va gaplarning har bir qismni joylashtirganingizga qarab, ular gap hamda so'zlaringizning ma'nosini o'zgartirishga amaliy yordam beradi. O'ylaymizki, bu yerda keltirilgan omillar ko'p sonli misollar tahlili yordamida yanada kengaytirilishi va yangi-yangi omillar bilan boyitilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Videoselektor. 7-may, 2021-yil
2. Колшанский Г.В. Грамматическая функция обособления членов предложения // Филологические науки, М., 1962, №1 с 31-41.
3. Петровская К.Я. Обособленные второстепенные члены предложения в современном английском языке. // Автореф. Дисс. На соиск. Учен. Степ. филол. Наук.-1953, с. 18-20
4. Турсунов Б.Т. Обособление и присоединение // Илмий тадқиқотлар ахборотномаси – Самарканд. СамДУ, 2004. №2-6-57-59
5. Rymond Murphy English grammar in use 3rd edition. Cam bridge University Press 2004. P.379
6. Качалова К. И., Израилевич Е. Е. Практическая грамматика английского языка: Учебник. – Б., 2001. – 672 с.